

Date: 27th March-2026

YOLGIZLIK VA BEGONALASHUV TUSHUNCHASINING TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI

Temirova Nilufar Erkinovna

f.f.n., dotsent, Guliston davlat universiteti

e-mail: temirovanilufar545@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida begonalashish ijtimoiy munosabatning uzulishi ortidan yuzaga keluvchi hodisa ekanligi yanada oydinlashib bormoqda. Shu bilan birga ayrim jamiyatlarda ustuvor bo'lgan egosentristik g'oyalar ham hodisaning manbai bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy ijtimoiy voqelikning eng dolzarb muammolaridan biri ham bu begonalashuv muammosidir. Bugungi kunda begonalashuv global xarakterga ega bo'lib, axborotlashayotgan jamiyatda inson shaxsiyatining transformatsiyasi jarayonida deviant determinant omili insonning barcha faoliyat sohalariga ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada, bu tushunchaning mazmuni va doirasini belgilab olish, turli nazariy maktablarning qiyosiy tahlili hamda begonalashuv hodisasi tasnifi o'rganib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: begonalashuv, yolg'izlik, madaniyat, fenomen, ekzistentsial, transformatsiya, tendensiya, shaxs, evolyutsiya.

THE IMPACT OF THE CONCEPT OF LONELINESS AND ALIENATION ON THE EDUCATION SYSTEM

Temirova Nilufar Erkinovna

f.f.n., dotsent

Gulistan State University

e-mail: temirovanilufar545@gmail.com

Annotation. In today's era of globalization, it is becoming increasingly clear that alienation is a phenomenon that occurs after the breakdown of social relations. At the same time, the egocentric ideas that prevail in some societies can also be the source of the phenomenon. Therefore, one of the most urgent problems of modern social reality is the problem of alienation. Today, alienation has a global character, and in the process of transformation of human personality in the information society, the deviant determinant factor affects all spheres of human activity. From this point of view, in this article, the definition of the content and scope of this concept, the comparative analysis of different theoretical schools and the classification of the phenomenon of alienation are studied.

Key words: alienation, loneliness, culture, phenomenon, existential, transformation, trend, personality, evolution.



Date: 27th March-2026



Begonalashuv bu tanazzul sifatida baholanishi bilan birga, bir-birlariga bog‘liq hodisalardir. Insoniyat tarixidagi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi qonli urushlar, shiddatli ijtimoiy nizolar, ichki ma‘naviy inqiroz, jamoatchilik ongining ijtimoiy voqelikka nisbatan beqarorligi va muloqot jarayonlari murakkabligining ta’siri begonalashuv ko‘lamini oshirganligi hech kimga sir emas. Shunday qilib ushbu ilmiy maqola uchinchi ming yillikning boshlarida inson begonalashuv hodisasini bartaraf eta olmasligini, aksincha, uning salbiy ta’siri ortishini, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar begonalashuvning yangi shakllari va turlarini vujudga keltirishi hamda begonalashuv yangi mazmun-mohiyat kasb etayotganligi uchun uning tub mohiyatini anglashda nazariy qarashlarni tahlil qilinganligi haqidagi fikrlar muallif tomonidan tadqiq etilganligi bilan ajralib turadi.

Begonalashtirish atamasi XVIII asrdan beri keng qo‘llanilib kelinmoqda hozirgi kunga qadar tadqiqotlarda yetarli darajada ilmiy isbotlab berilmaganligi bilan ahamiyatlidir. Begonalashish asosan ijtimoiy munosabatning uzulishi ortidan yuzaga keluvchi hodisa ekanligi oydinlashib bormoqda. Insoniyat tarixi davomida begonalashuv o‘rganish ob’ekti bo‘lib kelgan, bu hodisa bilan bog‘liq juda ko‘p nazariy, uslubiy va kontseptual materiallar mavjud. To‘plangan g‘oyalar, nazariyalar, tushunchalar sonining mavjudligini hisobga olgan holda maqola mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan an‘anaviy nazariyalarga e’tibor qaratildi va maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil, analogiya, tanqidiylik, tizimli tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, begonalashuv masalalarini o‘rganish antik davr falsafasida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Keyingi davrga kelib ijtimoiy shartnoma nazariyasida begonalashuv muammosi falsafiy nuqtai nazardan yoritila boshlangan bo‘lib, u jamiyat hayotini tahlil qildi hamda jamoatchilik institutlarining teskari ta’siri to‘g‘risidagi chuqur fikrlarini shakllantira boshladi. Shuningdek, davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarda T.Gobbs, J.Lokk va J.J.Russolar ham o‘z qarashlarida davlat ijtimoiy institut sifatida inson o‘zining huquq va erkinliklarini davlat foydasiga begonalashtiruvchi akt tizimi sifatida namoyon bo‘lishini, u o‘zining shaxsiy manfaatlar va istaklarini amalga oshirish yo‘lida inson erkinligini cheklashi mumkinligini ta’kidlagan edilar. XVIII-XIX asrlardagi nemis falsafasi vakili bo‘lgan K.Marks tomonidan begonalashuvning konsepsiyasi ishlab chiqilgan. E.Fromm begonalashtirishning ekzistentsial jihatiga e’tibor qaratdi, Z.Freyd esa begonalashuv tomirlari madaniy bosim oqibatidagi individning patologik holati ekanligini ta’kidlagan. Bundan keyingi davrlarda ham turli olimlar tomonidan begonalashuvning axloqiy, estetik va diniy jihatlari hamda uning oldini olish yo‘llariga oid ko‘rib chiqilgan ilmiy asarlari va tadqiqotlari ham mavjud.

XX asrda ijtimoiy-madaniy hayotda qadriyat va tartiblar transformatsiyasi, inson va uning tabiati haqida o‘rnatilgan g‘oyalar qayta ko‘rib chiqilishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat hayotiga ilmiy-texnika taraqqiyoti kirib kelishi bilan bu davrda shaxsning mohiyati, uning mavjudligi mazmuni va maqsadini qayta anglashda falsafiy, ijtimoiy qarashlarga ehtiyoj tug‘ildi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyoti tarixida muammolar qatorida begonalashuv hodisasi inson mavjudligining ajralmas omili sifatida bugungi

Date: 27th March-2026



kunga qadar o'rganilib, muayyan falsafiy tendensiyalar asosida maktablarning konsepsiyalari, yondashuvlari va xulosalari ishlab chiqildi. Aflotunning fikriga ko'ra, moddiyot dunyosi g'oyalar dunyosining begonalashtirilgan, o'zgartirilgan ijrosi bo'lib, abadiy inson ruhi tanada qamoqxonada bo'lganidek, u jalb qilingan g'oyalar dunyosidan chetda qoladi. Biroq, Aflotunning fikriga ko'ra, faqat boshqa dunyoga o'tish orqali ruhni begonalashishdan butunlay qutqarishi mumkin [Platon. 2002. – S. 161-248.]. Siyosiy begonalashuvning mavjudligi haqidagi g'oyaga Arastuning yondashuviga ko'ra, davlatdagi ijtimoiy hayot alohida fuqarolar hayotidan begonalashishini ta'kidlagan. U buni davlat - shaxsdan ham, oiladan ham ustun ekanligini, unga butunlay qaram bo'lib, ularning manfaatlari to'qnashganda davlat zimmasida qolishini bildirib o'tadi. Qonun-qoidani davlat belgilab beradi, aks holda odamlar hayvonlardan ham battaroq bo'lib ketishi mumkin deb hisoblaydi [Аристотель. 1983. – Т. 4. – 270 с.].

J.Lokk va B.Spinozaning intilishlari begonalashishni engish yo'llarini izlashga qaratilgan. Demak, Lokk siyosatda begonalashishni yo'q qilishga qonun ustuvorligini kafolatlash, uni xalq ustidan davlat hokimiyatidan ustun qo'yish hamda hokimiyatni majburiy taqsimlash orqali erishish mumkin deb hisoblagan. Spinoza odamlarni oqilona boshqarishni, davlat amalda xalq bilan birlashganda, demokratik tashkilot tomonidan ta'minlanishi mumkinligini ta'kidlagan. Shunda u jamoa irodasini ado etib, jamiyatdan begonalashmaydi deb hisoblagan. XVIII asrda frantsuz faylasufi J.J.Russo ijtimoiy shartnoma natijasida vujudga kelgan davlat, tsivilizatsiyaning boshqa yutuqlari singari, shaxsni qulga aylantirish vositasiga aylanadi degan g'oyani yanada rivojlantirdi [Pycco Ж.Ж. 1998. — 416 с.]. Shu zaylda, ijtimoiy taraqqiyot va begonalashuv o'rtasidagi munosabatlarni tushunish asta-sekin shakllanib bordi. Bu odamlar o'z huquqlari va erkinliklari bilan aloqani yo'qotishda, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda sub'ektivlikni yo'qotishda namoyon bo'ladi.

Begonalashtirish masalalari E.Fromm nazariyasida ham muhim o'rin tutadi, u tarixiy jarayonning keyingi yo'nalishini ikki qarama-qarshi, ammo bir-biriga bog'liq jihatlar - begonalashtirish va erkinlikni belgilaydi, deb hisoblaydi. Bu uning "Ozodlikdan qochish: inson o'zi uchun" asarida tahlil qilinadi. Taraqqiyot bilan erkinlik doimiy ravishda oshib borishiga qaramay, shaxsning ham odamdan ning ham olamdan uzoqlashish darajasi oshib boradi [Фромм, Э. 2006. – 571 [5] с.]. E.Fromm begonalashtirishning ekzistentsial jihatiga e'tibor qaratib, "Begonalashuv barcha qadriyatlarni qayta baholash jarayoniga olib keladi" deydi. E.Frommning qarashlarida aksariyat insonlar begonalashuv hodisasini shaxsning subyektiv holati yoki jamiyatdagi obyektiv pozitsiyasi ekanligini tushunishmaydi. Bu so'z aytilganda, odamlar unga hayrat va qo'rquv bilan qarashadi. Kimlardir uchun bu shunchaki haddan ziyod bir tomonlama fanatik qarashlar bilan bog'liq assosatsiyalar natijasida kelib chiqadigan stereotiplardir. E.Frommning fikriga ko'ra, —begonalashuv so'zi dastlab ruhiy kasal (insane – aqldan ozgan) inson ma'nosini anglatgan. Frantsiyada "aliene" va Ispaniyada esa "alienado" – bu mutloq begonalashgan, psixotik insonni belgilash uchun ishlatilgan eski atamalardir [Akbarjonovich, M. A. (2023). 628-631.].

Date: 27th March-2026

Yuqoridagilardan kelib chiqib, begonalashuv zamonaviy dunyoda harakatchanlik va dinamizm xususiyatiga ega bo'lib, klassik doirasidan tashqariga chiqadi, bu esa uni o'rganishda fanlararo yondashuvning amaliyligini asoslaydi. Shunday qilib, begonalashuv muammosining tarixiy jihatini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, falsafiy tafakkur tarixida begonalashuv muammosini tushunishda turli jihatlar va xilma-xil yondashuvlar ochib berilgan. Begonalashuv hodisasi turli davrlarning ijtimoiy hayotida ko'proq yoki kamroq mavjud bo'lgan, lekin uning tabiati ijtimoiy-tarixiy sharoitga qarab o'zgargan. Begonalashtirishga yordam beruvchi tashqi omillar-sivilizatsiyaning sanoat va texnogen tabiati bilan bog'liq holda axloqning, insonning diniy, ijtimoiy ob'ektivlashuvning, uning texnotsentrizmining tanazzulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Платон. Тимей / Платон. Избранные диалоги; вступит. статья, составл., примеч. В.Е. Витковский. – М.: «РИПОЛ КЛАССИК», 2002. – С. 161-248.
2. Аристотель. Политика / Аристотель. Сочинения в 4-х т.т. – М.: Мысль, 1983. – Т. 4. – 270 с.
3. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. — М.: "КАНОН-пресс", "Кучково поле", 1998. — 416 с.
4. Фромм, Э. Бегство от свободы: человек для себя: Пер. с англ. / Э. Фромм. – М.: АСТ, 2006. – 571 [5] с
5. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO JURNALI*, 2(1), 628-631.

